

TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI

TOSHKENT VILOYATINING
DEMOGRAFIK HOLATI

*2024- yil
yanvar-iyun*



TOSHKENT VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024- yil 1- iyul holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2024- yilning 1- iyul holatiga viloyatda doimiy aholi soni 3 079,5 ming kishini tashkil qildi va yil boshidan 27,7 ming kishiga yoki 0,9 %ga ko'paydi. Shundan, 1 540,5 ming kishi shahar joylarida (jami aholi sonining 50,0 %) va 1 539,0 ming kishi qishloq joylarida (50,0 %) tashkil etdi.

Doimiy aholi soni

3 079,5 *ming kishi*

Tabiiy o'sish

+26,0 *ming kishi*

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar



50,0%

Qishloq



50,0%

Aholining tabiiy harakati, kishi

2024- yil yanvar-iyun

	Kishi			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o'sish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Tug'ilganlar	33 457	33 588	131	22,4	22,0
O'lganlar	6 704	7 595	891	4,5	5,0
Ko'chib kelganlar	13 133	15 567	2 434	8,8	10,2
Ko'chib ketganlar	13 090	13 835	745	8,8	9,1

	birlik			1000 aholiga nisbatan	
	2023- yil	2024- yil	o‘shish, kamayish, +,-	2023- yil	2024- yil
Nikohlar	7 517	7 593	76	5,0	5,0
Ajralishlar	2 437	2 285	-152	1,6	1,5


Toshkent viloyati bo‘yicha asosiy demografik ko‘rsatkichlar

2024- yil yanvar-iyun



Yosh guruhlari bo‘yicha aholi soni


2024- yil 1- iyul holatiga



2024- yil 1- iyul holatiga ko‘ra, Toshkent viloyatida doimiy aholisi sonining **30,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar, **56,1 %** i mehnatga layoqatli yoshdagilar va **13,8 %** i mehnatga layoqatli yoshdan kattalar hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

Jinsi bo'yicha aholi tarkibi

2024- yil 1- iyul holatiga



Doimiy aholi sonining hududlar bo'yicha taqsimlanishi


1- iyul holatiga, kishi

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, %da
Viloyat bo'yicha:	3 020 249	3 079 493	102,0
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	55 111	56 788	103,0
Olmalik	143 376	147 638	103,0
Angren	180 808	183 966	101,7
Bekobod	103 141	105 264	102,1
Ohangaron	41 062	41 616	101,3

	2023- yil	2024- yil	O'sish sur'ati, %da
Chirchiq	170 035	174 120	102,4
Yangiyo'l	82 963	86 334	104,1
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	111 132	113 045	101,7
Ohangaron	110 111	112 198	101,9
Bekobod	164 533	166 934	101,5
Bo'stonliq	176 041	177 412	100,8
Bo'ka	133 629	135 569	101,5
Quyi Chirchiq	114 912	116 793	101,6
Zangiota	168 765	173 221	102,6
Yuqori Chirchiq	138 155	140 582	101,8
Qibray	174 021	176 923	101,7
Parkent	176 449	180 028	102,0
Piskent	102 444	102 343	99,9
O'rta Chirchiq	135 687	138 780	102,3
Chinoz	144 029	146 753	101,9
Yangiyo'l	198 898	201 892	101,5
Toshkent	194 947	201 294	103,3


Viloyat hududida aholi sonining eng ko'p o'sishi 2024- yil 1- iyul holatiga Toshkent tumanida (103,3 %), Nurafshon (103,0 %), Olmaliq (103,0 %) shaharlarida kuzatildi.

QAYD ETILGAN TUG‘ILISHLAR (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida tug‘ilganlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, kishi




2024- yil yanvar-iyun oylarida tug‘ilganlar soni 33 588 kishini tashkil qildi va 2023- yilning shu davriga (33 457 kishi) nisbatan 131 taga ko‘paygan. Shunga mos ravishda tug‘ilish koeffitsiyenti 22,0 promilleni tashkil qildi.




Vafot etganlarning asosiy o‘lim sabablari


2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yilning yanvar-iyun oylarida qayd etilgan o‘lim holatining **59,6** %i – qon aylanish tizimi kasalliklaridan, **11,6** %i – o‘simtalardan, **11,5** %i boshqa kasalliklardan, **6,4**%i baxtsiz hodisa zaharlanish va jarohatlanishlardan,**6,2** %i – nafas olish a‘zolari kasalliklaridan, **3,6** %i ovqat hazm qilish a‘zolari kasalliklaridan, **1,1** %i – yuqumli va parazitlar kasalliklaridan vafot etganlar.

VAFOT ETGANLAR (yanvar-iyun)

Hududlar kesimida vafot etganlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-iyun, kishi



2024- yil yanvar-iyun oylarida 7 595 ta o'lim qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 5,0 promilleni tashkil etdi.




QAYD ETILGAN NIKOHLAR (yanvar-iyun)



Hududlar kesimida nikohlar soni va koeffitsiyenti


2024- yil yanvar-iyun, birlik



Nikoh tuzish koeffitsiyentining avvalgi yilga nisbatan eng ko'p pasayishi Ohangaron shahri (1,4 promillega) va Parkent tumani (1,1 promillega) kuzatildi.




NIKOHDAN AJRALISHLAR (yanvar-iyun)



Nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti

2024- yil yanvar-iyun, birlik




2024- yil yanvar-iyun oylarida 2 285 ta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, har 1000 aholiga nikohdan ajralishlar koeffitsiyenti 1,5 promilleni tashkil etgan.



Nikohdan ajrashganlarning farzandlar soni bo'yicha taqsimlanishi

2024- yil yanvar-iyun

farzandsiz
ajrashgan2 va
undan ortiq
farzand bilan
ajrashgan

2024- yil yanvar-iyun oylarida Toshkent viloyatida jami nikohdan ajrashganlarning **45,2** %i farzandsiz, **29,7** %i bitta farzand bilan va **25,1** %i ikki va undan ortiq farzand bilan ajrashganlar hissasiga to'g'ri kelgan.



Aholining migratsiya ko'rsatkichlari
(yanvar - iyun)
(kishi)

Hudud nomi	Kelganlar		Ketganlar		Migratsiya saldosi	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
Viloyat bo'yicha:	13 133	15 567	13 090	13 835	43	1 732
<i>shaharlar:</i>						
Nurafshon	419	501	181	276	238	225
Olmaliq	663	574	709	731	-46	-157
Angren	483	499	450	413	33	86
Bekobod	284	380	327	318	-43	62
Ohangaron	417	329	194	207	223	122
Chirchiq	1 187	1 222	1 003	908	184	314
Yangiyo'l	628	765	429	503	199	262
<i>tumanlar:</i>						
Oqqo'rg'on	146	243	331	304	-185	-61
Ohangaron	439	451	407	530	32	-79
Bekobod	260	173	391	516	-131	-343
Bo'stonliq	480	250	851	791	-371	-541
Bo'ka	158	256	379	364	-221	-108
Quyichirchiq	335	432	681	535	-346	-103
Zangiota	1 425	1 911	1 132	1 348	293	563
Yuqorichirchiq	405	994	803	751	-398	243
Qibray	1 147	1 536	1 346	1 346	-199	190
Parkent	225	219	234	363	-9	-144
Piskent	209	300	409	351	-200	-51
O'rta Chirchiq	716	1 093	644	745	72	348
Chinoz	522	454	452	494	70	-40
Yangiyo'l	1 059	1 256	930	1 152	129	104
Toshkent	1 526	1 729	807	889	719	840

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va hududdan ko'chib ketganlar soni ayiriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasaliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Ko'chib kelganlar soni – ko'chib kelganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib kelish.

Ko'chib ketganlar soni – ko'chib ketganlarning absolyut miqdori, ya'ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko'chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo'yicha ro'yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so'rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko'chib ketish.

Aholining migratsion o'sishi (farqi) – hisobot davrida ko'chib kelganlar va ko'chib ketganlar soni o'rtasidagi farqning absolyut miqdori.